



IJTIMOYIY ISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Rahmatullayev Fayzullo Xayrullo o'g'li

Buxoro davlat universiteti talabasi

fayzullorahmatullayev0208@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8375153>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil

Ma'qullandi: 23-September 2023 yil

Nashr qilindi: 25-September 2023 yil

KEYWORDS

ijtimoiy ish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ish xodimi, oila, bola, nogironligi bor shaxslar

ABSTRACT

Maqolada ijtimoiy ishning keng yoyilib borishi, ijtimoiy ishning jamiyat hayotidan keng o'rin olib borishi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmatlar turlari haqida fikr yuritilgan.

Ijtimoiy ish — bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarda ko'maklashishga yo'naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy ish keng ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelidir. Uni jamiyatning aniq bir tarixiy davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro'yobga chiqaradi. Tor ma'noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy ish bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy institut, ham professional faoliyat turi, ham ijtimoiy amaliyot, nazariy bilimlar asosi va o'quv fani hisoblanadi. Ijtimoiy oshning diqqat markazida ijtimoiy xodim faoliyati turadi. Mazkur faoliyat samarali bo'lishi uchun insonlarning muammolarini anglay bilishi, ularni hal etish usullarini bilishi lozim. Unga ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalar, rahmdillik, hamdardlik, mas'uliyat, tolerantlik(bag'rikenglik), insonparvarlik, fuqarolk hissi, ijtimoiy adolat kabi maxsus, kasbiy va ma'naviy-axloqiy xususiyatlar xos.

Ijtimoiy ish tushunchasi, ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida kengayib rivojlanib borishi jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi shiddatli o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Ijtimoiy muammolarning keskin kuchayishi aholining ko'p qismi davlat tomonidan ijtimoiy himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik professor Charles Zastrovning yozishicha: "Ijtimoiy ish odamlarga, oilalarga, guruhlarga va jamiyatlarga, ularning shaxsiy, shaxslararo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini ularning hayot faoliyati sharoitlarini yaxshilash hisobiga oshirishda yordam ko'rsatish jarayonida odamlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy xodimlar mijozlarning ijtimoiy muhitini aniqlab olish, tanlovni amalga oshirish, o'z tanlovi uchun javobgarlikni qabul qilish va ularning hayot vaziyatiga tadbiriq va targ'ibot qilish orqali ta'sir ko'rsatish maqsadida mijoz imkoniyatlarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Ijtimoiy xodimlar, shuningdek, jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasida hukmronlikning adolatli tarzda taqsimlanishiga erishishga intiladilar. Ijtimoiy adolatlilikka kabi urg'u berilishi ijtimoiy ish kasbining ajratib turuvchi jihati hisoblanadi".

NATIHALAR

Jahon bo'yicha ijtimoiy ishning ulkan tajribasi mavjud. Mamlakatimizda ijtimoiy ish bo'yicha orttirilgan tajriba ham kam emas. Biroq bugungi kunga kelib mamlakatimizda o'zgarib borayotgan ijtimoiy vaziyatlar ijtimoiy ish konsepsiyasini asoslash va uni amaliyotga joriy qilish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sohaning boshqaruv organlari uchun kadrlar tayyorlash va ularni aholining muayyan guruhi bilan ishlashga ixtisoslashtirish, alohida mijoz, mijozlar guruhi (oilalar, ayollar, bolalar, yoshlar, keksalar va h.k.) bilan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda

Mazkur vaziyatda ijtimoiy ishni kasb va akademik fan sifatida o'rganish juda muhim va samarali ekanligi ochiq oydin namoyon bo'lmoqda. Aholining turli qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borish ularning jamiyatdagi hayot farovonligini ta'minlash, ularning hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish qaratilgan faoliyatdir. Ijtimoiy ta'minot atamasi esa keng ma'noda aholining farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan barcha tashkiliy muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot bir-biriga chambarchas bog'liq va o'zaro teng tushunchadir. Ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash sohasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, aholi bandligini ta'minlash, keksalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy sug'urta, jismoniy va aqliy nuqsonlari bor kishilarga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy reabilitatsiya markazlari kabilarning barchasi ijtimoiy ta'minot sirasiga kiradi.

MUHOKAMA

Ijtimoiy ishchi - odamlar bilan ishlaydigan, kundalik hayotlarini boshqarish, kasallik, nogironlik, o'limga moslashish va ijtimoiy xizmatlarga ega bo'lishga ko'maklashadigan professionaldir. Ular sog'liqni saqlash, davlat yordami va huquqiy yordamni o'z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy ishchilar oiladagi zo'ravonlik, qashshoqlik, bolalarni suiiste'mol qilish va uysiz qolish kabi ijtimoiy masalalarni hal qilish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishi, amalga oshirishi va baholashi mumkin

Ko'p turli xil ijtimoiy ish karyeralari mavjud. Ijtimoiy muammolarning turlariga qarab ijtimoiy ish xodimlari turli vaziyatlarda turli mijozlar, turli xil qatlamlar bilan ish olib borishadi. Masalan, ba'zi bir xodimlar nogironligi bor shaxslar bilan ish olib boradi, ba'zi bir ijtimoiy ish xodimi ko'p nizolar kelib chiqadigan oilalar bilan, ba'zi bir xodimlar keksalar, ayollar bilan ijtimoiy ish olib borishadi. Ijtimoiy ish xodimi o'z kasbining eng malakali va eng ustasi bo'lishi kerak deb hisoblayman. Birgina ijtimoiy ish sohasida emas. Barcha sohalarda xodimlar o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Ijtimoiy ish esa biroz boshqacharoq faoliyat olib boradi. Jamiyatdagi ijtimoiy muammolar turlicha bo'lgani kabi ularning yechimlari va muammollarni

hal etishga ko'ra yondashish ham turlicha bo'lishi kerak. Chunki, bir mijozning ijtimoiy muammosini hal etishda qo'llangan metod, boshqa turdagi muammo bilan murojaat qilgan insonga qo'l kelmaydi, samara bermaydi. Ijtimoiy muammolarni hal etishda turlicha yondashuv, turlicha yechimlar qo'llay olish uchun eng avvalo, ijtimoiy ish xodimi nazariy va amaliy jihatdan puxta bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shu tariqa mamlakatimizda ijtimoiy tushunchasi keng yoyilib bormoqda, mamlakatimizdagi bir qator universitetlarda ijtimoiy ish yo'nalishlari ochirilgan bo'lib, ijtimoiy sohasi bo'yicha malakali va yetuk kadrlarni tayyorlab kelmoqda.

So'nggi kunlarda mamlakatimizda ijtimoiy ish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholiga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini joriy qilish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Agentlikning asosiy vazifalaridan biri og'ir ijtimoiy holatga tushgan va tushish xavfi bo'lgan aholi bilan manzilli ishlashni tashkil qilishdan iborat bo'lib, aholining 31 ta toifasiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etadi.

Xususan:

- keksa yoshdagi shaxslar va qariyalar;
- o'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- kam ta'minlangan oilalar;
- zo'ravonlikka uchragan shaxslar;
- nogiron farzandlari bo'lgan oilalarga va ota-onasining biri nogiron bo'lgan bolalar;
- vasiylikka olingan oilalar;
- etim va chin etim bolalar;
- alohida ta'lim-tarbiyaga muhtoj shaxslar ijtimoiy yordam va xizmatlar bilan qamrab olinadi.

Agentlik tomonidan aholiga quyidagi asosiy ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatiladi:

- kam ta'minlangan oilalarga hamda mehantga layoqatsiz aholiga nafaqalar va moddiy yordamlar berish;
- keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar hamda mehnat faxriylari uchun sanatoriylar hamda pansionatlarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish;
- aholini protez-ortopediya mahsulotlari va rehabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni imtiyozli hamda bepul stasionar davolanishini ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning yakka tartibdagi rehabilitasiya dasturlarini ishlab chiqish;
- og'ir ijtimoiy oilalar bilan ishlash;
- ruhiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish;
- tazyiq va voyaga etmagan bolalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish;
- etim va chin etimlar bilan manzilli ishlash;
- extiyojmand aholi qatlamiga tibbiy, psixologik va boshqa xizmatlarini ko'rsatish.

Ijtimoiy ish sohasi mamlakatimizda yildan yilga sayqallanib, xorij taribalari andoza olgan holda rivojlanib, yuksalib kelmoqda. So'nggi kunlarda "ijtimoiy himoya milliy agentligi"ning

tashkil etilishi esa mamlakatimizda amalga oshirilgan eng katta o'zgarishlardan biri bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatning yuksalishishi uning farovonligi, ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishida samarali natijalarga bosqichma-bosqich erishilib borilmoqda. Bunday o'zgarishlardan xulosa qilib aytish mumkinki, aholining turli qatlamlari bilan ishlashda ularga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatlarning keng ko'lamda yoyilishi jamiyat hayotining farovonligiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu sohaning faoliyati kengayaib boradi. Asta-sekin mamlakatimizdagi barcha universitetlarda ushbu yo'nalishda, ushbu soha bo'yicha yetuk va malakali kadrlar yetishib chiqadi albatta. Ijtimoiy ish sohasi boshqa yo'nalishlarni ham qamrab olganligi bilan farq qiladi. Jumladan, psixologiya, sotsiologiya, huquq, tibbiyot kabi bir qancha yo'nalishlarni o'zida jamlagan.

XULOSA

ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy muammolarni hal qilishda turlicha yondashadi yuqorida aytib o'tilganidek. Ijtimoiy himoyaga muhtoj inson psixologik, tibbiy, huquqiy yoki boshqa xil yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ijtimoiy ish sohasi ko'pincha psixologiya va huquq kabi yo'nalishlar bilan aloqadordir. Ijtimoiy ish xodimi yetuk kadr bo'lishi uchun nazariy bilimlarni, hamda amaliyotni puxta o'rganib borishi zarur.

Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent – “Fan va texnologiya”, 2015
2. M.X.G'aniyeva, Q.N.Kayumov, M.B.Sherov. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: 2020
3. A.V.Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish darslik. Toshkent – “Iqtisod-moliya”, 2018
4. www.lex.uz
5. www.darakchi.uz

INNOVATIVE
ACADEMY